



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022-YIL YANVAR OYI







Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 924,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 114,3 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (76,8 %) ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat
D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boyicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*% da (2022- yil yanvar)




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 13,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning –20,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 7,9 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -0,2 % ga kamayganligi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da (2022- yil yanvar)




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I oy, % da)

2021- yil, % da

2022- yil, % da






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Shag'al , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat (2022- yil yanvar)



2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 710,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 76,8 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2022- yil yanvar)




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,5 % ni (2021- yilning yanvar oyida - 2,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,4 % (6,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 12,4 % (11,9 %) va quyi texnologiyalisi - 77,7 % (79,2 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 35,1 % (2021-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,1 % (2021-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,7 % (2021-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 173,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,9 % (2021-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 128,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,9 %) ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da (2022- yil yanvar)


2022 yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,8 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,0 % ga o'sgan), 1,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (74,6 %) ishlab chiqarilib o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



Paxta tolasi



O'simlik yog'i




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (2022- yil yanvar)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi , ming tonna	3,4	3,8	0,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Vino , ming litr	0,0	0,0	0,0
Un , ming tonna	10,7	10,3	-0,4
O'simlik yog'i (tozalangan) , ming tonna	0,8	1,4	0,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (2022- yil yanvar)

mlrd. so'm



FHI, % da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 203,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (22,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,5 % ga ortganligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I- oy, % da)

2021- yil, % da



2022- yil, % da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil Yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	581,2	472,6	-108,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6,1	7,9	1,8




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish






Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I oy)



2021
yilda

2022
yilda



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,7	6,7	1,0


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so‘m	0,7	0,6	-0,1
Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	1,9	1,6	-0,3
To‘qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	0,0	0,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 17,5 % ga ortganligi, oqava suvlarni shlami 14,3% hamda shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 15,8 % ga kamayganligi kuzatildi.




Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 448,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 48,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,9 % ni, shuningdek, Namangan tumani 9,7 % ni, Chust tumani 9,5 % ni, Kosonsoy tumani 6,3 % ni, To'raqo'rg'on tumani 6,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Uchqo'rg'on (138,2 %), Yangiqo'rg'on (133,3 %), Kosonsoy (132,7 %), Uychi (117,0 %), Namangan (115,4 %) tumanlarida hamda Namangan shahar (113,4%) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2022 yilning yanvar oylarida

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,8 % ni, shuningdek, Chusiy tumani 13,0 % ni, Namangan tumani 9,0 % ni hamda Kosonsoy tumani 8,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Kosonsoy (141,7 %), Yangiqo'rg'on (117,3 %), Chust (113,2 %) hamda Namangan (112,7 %) tumanlarida qayd etildi.



260,9 mlrd. so'm
2021- yil yanvar

282,9 mlrd. so'm
2022- yil yanvar



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2022- yilning yanvar)



Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 45,0 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 13,1 % ni, Namangan tumani esa 10,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida

eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (221,4 %), Uychi tumani (150,8 %) hamda Uchqo'rg'on tumanida (171,3 %) qayd etildi.



140,5 mlrd. so'm
2021- yil yanvar

165,4 mlrd. so'm
2022- yil yanvar







mlrd. so'm

o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (935,0 ming so'm), Namangan shahrida (503,2 ming so'm), Uchqo'rg'on (412,9 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (319,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (53,0 ming so'm), Chortoq (64,3 ming so'm), Mingbuloq (119,0 ming so'm) va Pop (123,4 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,5 % i) hamda To'raqo'rg'on (23,3 %), Uchqo'rg'on tumani (7,9 %) va Namangan tuman (7,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,3 %) hamda Chortoq (1,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2022- yilning yanvar oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 303,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (68,5 %) va Uychi (58,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (8,7 %), Uchqo'rg'on (8,7 %), Norin (25,4 %) va Chust (26,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2022- yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7 182 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 644 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,8 % i) Namangan shahriga, 569 tasi (7,9 %) Uychi tumaniga, 559 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 532 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 526 tasi (7,3 %) Chust tumaniga, 472 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021- yil

142- dona

2022- yil

63 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

6 670- dona

2022- yil

7 182 dona

faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan